

RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA AYOLLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH

Xabibullayeva Sadoqat Baxtiyor qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: *Raqamlashtirish davrida ayollar huquqlarini himoya qilish masalasi dunyo bo'yicha dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada raqamli jamiyatda ayollarni erkin, xavfsiz va teng imkoniyatlar bilan ta'minlashning muhimligi ko'rsatiladi. Ayollarni raqamli jamiyatda faollashtirish va ularning huquqlarini himoya qilish uchun raqamli tenglik, onlayn xavfsizlik, raqamli iqtisodiyotga integratsiya qilish, va ayollarni onlayn tahdidlardan himoya qilish kabi masalalar yoritiladi. Maqolada shuningdek, gender tengsizliklari va raqamli iqtisodiyotda ayollarni qo'llab-quvvatlashning zarurligi ta'kidlanadi. Raqamli huquqlarni himoya qilish, shaxsiy ma'lumotlarni saqlash va internetda erkin faoliyat yuritish uchun davlatlar va xususiy sektorlar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash zaruriyati ko'rsatilgan. Maqolada, shuningdek, ayollarning raqamli ta'lim olish, raqamli texnologiyalarga o'qish va kasb-hunarni rivojlantirishdagi roli muhimligi hamda bu jarayonni yanada rivojlantirish uchun kerakli ijtimoiy va qonuniy o'zgarishlar haqida so'z yuritiladi.*

Аннотация: *В эпоху цифровизации вопрос защиты прав женщин остается актуальным во всем мире. В этой статье подчеркивается важность предоставления женщинам свободы, безопасности и равных возможностей в цифровом мире. Для активизации женщин в цифровом обществе и защиты их прав будут освещены такие вопросы, как цифровое равенство, онлайн-безопасность, интеграция в цифровую экономику, и защита женщин от онлайн-угроз. В статье также подчеркивается гендерное неравенство и необходимость поддержки женщин в цифровой экономике. Указывается на необходимость укрепления сотрудничества между государствами и частным сектором для защиты цифровых прав, сохранения личной информации и свободного доступа в интернет. В статье также говорится о важности роли женщин в цифровом образовании, обучении цифровым технологиям и профессиональном развитии, а также о социальных и юридических изменениях, необходимых для дальнейшего развития этого процесса.*

Annotation: *The issue of protection of the rights of women in the era of digitization on the world remains topical. Women in the digital realm in this article is free, safe and with the importance of ensuring equal opportunities is shown. Digital identity digital enable women to protect their rights in society and online security, to integrate into the digital economy, and women, covering issues such as the protection from online threats. The article also stressed the necessity of the support of gender inequality and women in the digital economy. Digital rights protection and storage of personal data on the internet indicated the need to strengthen cooperation between the public and private sector activity for free. In the article, as well as women's digital education, digital technology and professional*

development read rendered necessary for the further development of this process and the importance of the role of the social and legal changes referred the word about.

Kalit so'zlar: *raqamlashtirish, ayollar huquqlari, raqamli tenglik, onlayn xavfsizlik, kiberhujumlar, iqtisodiy mustaqillik, raqamli iqtisodiyot, raqamli huquqlar, gender tengsizlik, huquqiy himoya, diskriminatsiya, raqamli ta'lim, texnologiyalar, internetda erkin faoliyat.*

Ключевые слова: *цифровизация, права женщин, Цифровое равенство, онлайн-безопасность, кибератаки, экономическая независимость, Цифровая экономика, цифровые права, гендерное неравенство, правовая защита, дискриминация, цифровое образование, технологии, свободная деятельность в интернете.*

Keywords: *digitization, women's rights, digital identity, online security, kiberhujumlar, economic independence, the digital economy, digital rights, gender inequality, legal protection diskriminatsiya, digital education, technology free activities on the internet.*

KIRISH

Raqamlashtirish davri insoniyat hayotida yangi imkoniyatlarni yaratgan bo'lsa-da, shu bilan birga turli xavflar va tahdidlarga ham olib kelmoqda. Texnologiyalarning tezkor rivojlanishi va internetning keng tarqalishi, dunyo miqyosida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, va madaniy hayotni o'zgartirib, yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar faqat erkaklar uchun emas, balki ayollar uchun ham muhim imkoniyatlar yaratadi. Ammo, raqamli olamda ayollarning o'rni va huquqlari hali to'liq ta'minlanmagan va ba'zi hollarda ularga qarshi kiberhujumlar, onlayn zo'rvonlik va gender tengsizlik kabi tahdidlarga duch kelinmoqda. Raqamli iqtisodiyotda va onlayn platformalarda ayollarni teng huquqli ishtirokchilar sifatida ko'rish, ularni iqtisodiy mustaqillikka erishish, shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish va xavfsiz raqamli muhitda faoliyat yuritish imkoniyatlari bilan ta'minlash har bir jamiyat uchun dolzarb masaladir. Raqamlashtirish jarayonida ayollarni himoya qilish va ularning huquqlarini ta'minlash zarurati ayniqsa muhimdir, chunki ayollar ko'pincha raqamli imkoniyatlardan to'liq foydalana olishmaydi yoki onlayn tahdidlarga ko'proq duchor bo'lishadi. Shu nuqtai nazardan, bu maqolada ayollar huquqlarini raqamli davrda himoya qilishning ahamiyati, raqamli tahdidlardan ularni himoya qilish, onlayn xavfsizlik, raqamli iqtisodiyotga ayollarni integratsiya qilish, va ularning raqamli huquqlarini himoya qilish kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Maqola, shuningdek, ayollarning raqamli jamiyatda erkin va xavfsiz faoliyat yuritishlari uchun zarur bo'lgan qonuniy, ijtimoiy va texnologik o'zgarishlarni ham tahlil qiladi. Bu jarayon nafaqat gender tengligini ta'minlashga, balki ayollarni raqamli iqtisodiyotga jalb qilish, ularni ilm-fan, ta'lim va texnologiya sohalarida faol ishtirok etishlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lishi lozim. Maqolada, raqamli jamiyatda ayollar huquqlarini himoya qilish uchun davlatlar, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati ham yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Raqamlashgan davr butun dunyoda xotin-qizlarning hayotini tubdan yaxshilash uchun yangi va misli ko'rimagan imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarini, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tizimlarni jadallik bilan o'zgartirmoqda hamda ko'p vaqtdan buyon bir chekkaga chiqib qolgan ayollar va qizlar o'zlarini o'nglab olishlari uchun yangidan-yangi tayanch nuqtalarini yaratmoqda.

Shu bilan birga, bunday zamonaviy texnologiyalar rivojlangani sari xotin-qizlarning farovonligiga raxna soladigan kasofatli tahdidlar ko'lami ortib borayotganidan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Virtual makon ayol zotini haqorat qilish uchun keng maydon ochib bergani holda, haqoratgo'ylarning oshkor bo'lmasdan va jazo olmasdan panada qolishlariga ham imkoniyat tug'dirmoqda.

Ayni sohada hozirgacha global ko'lamdagi aniq qonun-qoidalar va tartib-taomillar mavjud emas. Bu, o'z navbatida, nozik aholi qatlami vakilalari huquqlarining poymol etilishiga va shaxsiy hayoti daxlsizligi buzilishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda xotin qizlar masalasi hamda ularni jamiyatda tutgan o'rni bir qancha munozaralarga sabab bo'lmoqda. Xususan, muammolar quyidagi sohalarda namoyon bo'lmoqda.

Onlayn Xavfsizlik va Ayollarni Himoya Qilish

Raqamlashtirish davri, shuningdek, ayollarni onlayn tahdidlardan, xususan, kiberhujumlardan himoya qilishni talab qiladi. Onlayn zo'rvonlik, ta'qib va shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi ayollarni xavf ostiga qo'yadi. Ayollarni onlayn tahdidlardan himoya qilish uchun maxsus qonunlar ishlab chiqilishi, kiberhujumlar va tahdidlar bilan kurashish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish lozim. Masalan, onlayn tahdidlar, shu jumladan, stalkerlik (internet orqali ta'qib qilish) va kiberhujumlar ayollarni nafaqat ruhiy, balki jismoniy xavfga ham duchor qilishi mumkin. Bu holatlarni bartaraf etish uchun huquqiy mexanizmlar yaratish, ayollarni o'z huquqlari va himoya vositalari haqida xabardor qilish zarur.

Ayollarni Raqamli Iqtisodiyotga Integratsiya Qilish

Raqamlashtirish davrida ayollarni iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun raqamli iqtisodiyotga jalb qilish katta ahamiyatga ega. Onlayn biznes, raqamli xizmatlar va boshqa raqamli platformalar ayollarga o'z biznesini yaratish, o'z ishini boshqarish va mustaqil iqtisodiy faoliyat yuritish imkoniyatini beradi. Biroq, ayollarni raqamli iqtisodiyotga jalb qilishda ba'zi to'siqlar mavjud. Bu to'siqlarni yengish uchun maxsus o'quv dasturlari, grantlar va moliyaviy yordamlar yaratish zarur. Shu bilan birga, onlayn platformalarda ayollarni qo'llab-quvvatlaydigan tarmoq va jamiyatlar tashkil qilish, ayollarga o'z o'rnini topish va muvaffaqiyatga erishish uchun zarur imkoniyatlarni yaratish kerak.

Raqamli Huquqlarni Himoya Qilish

Ayollarning raqamli huquqlari faqat onlayn xavfsizlik va iqtisodiy erkinlik bilan cheklanmaydi. Ayollarning internetda erkin fikr bildirish, o'z fikrlarini ifodalash, shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, ta'lim olish va o'z salohiyatlarini namoyish etish huquqlari ham himoya qilinishi kerak. Shu bilan birga, ayrim mamlakatlarda ayollarning internetda erkin

ishtirok etishi va fikr bildirishga nisbatan cheklovlar mavjud. Bu holatlarni bartaraf etish uchun, raqamli erkinlikni ta'minlash, diskriminatsiyani yo'qotish va ayollarning internetdagi huquqlarini himoya qilish zarur.

Mamlakat ayollar huquqlarini qay darajada ta'minlayotganini baholash turli jihatlariga, jumladan, qonunlar, siyosatlar, ijtimoiy-madaniy omillar va haqiqiy turmush sharoitlariga bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq, ayrim davlatlar tenglik va ayollar huquqlarini ilgari surish borasidagi sa'y-harakatlari bilan taniqlidir. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday mamlakatlarda ham muammolar mavjud bo'lishi mumkin va hech bir davlat bu sohada to'liq mukammallikka erishmagan. Jamiyatda ayollarning ijtimoiy faolligi juda muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

So'nggi yillarda Gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni e'tirof etadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4235-son qarori, O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-martdagi "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 192-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o'qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 402-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 4-yanvardagi 4-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-noyabrdagi "Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 919-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-apreldagi "Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 285-son qarorini e'tirof etish mumkin. Shuningdek, 11-sentyabr 2023-yildagi PF-158-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasining 25-maqсадida Gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish. Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'rvonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash. «Ayollar daftari» bilan manzilli ishlashning shaffof mexanizmini yaratish, mazkur ishlar bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish nazarda tutilgan. Ushbu qabul qilingan qonun va qarorlar albatta mamlakatimizdagi xotin va qizlarning huquq va majburiyatlarini

kafolatlab, shu bilan birgalikda ko'pgina huquqbuzarliklarni oldini olishda ham samarali xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar

O'zbekistonda ayollar huquqlarini himoya qilishning olti yo'nalishidan iborat milliy tizimi yaratilgan:

Birinchi, bu borada zarur huquqiy baza yaratilgan;

Ikkinchi, institutsional tizimning poydevori yaratildi;

Uchinchi, ma'lum ta'lim faoliyati boshlandi;

To'rtinchi, sohaga oid qonunlar ijrosi monitoringi amalga oshiriladi;

Beshinchi, fuqarolik jamiyati institutlarining imkoniyatlaridan samarali foydalanilmoqda;

Oltinchi, ayollar huquqlarini himoya qilish sohasida xalqaro hamkorlik izchil amalga oshirilmoqda.

Bugungi shiddatli va murakkab globallashuv davrida inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida xotin-qizlarning huquqlariga rioya qilinishi sohasidagi vaziyat ham jahon hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Ma'lumki, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1979-yil 18-dekabrda Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya qabul qilingan. Ushbu Konvensiyaga O'zbekiston 1995-yil 6-mayda qo'shilgan. Konvensiyaning bajarilishi bo'yicha O'zbekistonning Oltinchi davriy ma'ruzasi BMT Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish qo'mitasining 2022-yil 15-16 fevral kunlari bo'lib o'tgan 81-sessiyasida ko'rib chiqildi.

O'zbekistonda ayollar huquqlarini himoya qilishning milliy tizimi yaratilgan va u oltita yo'nalishdan iborat. Birinchi, bu borada zarur huquqiy baza yaratilgan; ikkinchi, tegishli institutsional tizimga asos solingan; uchinchi, muayyan o'quv-tarbiya ishlari yo'lga qo'yilgan; to'rtinchi, sohaga oid qonunlar ijrosining monitoringi olib borilmoqda; beshinchi, fuqarolik jamiyati institutlarining imkoniyatlaridan samarali foydalanilmoqda; oltinchi, ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro hamkorlik izchil amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham ushbu muhim masalalar o'z aksini topdi. Shuningdek, 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasida xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish bo'yicha muhim chora-tadbirlar belgilangan. Keyingi yillarda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasiga muvofiq xotin-qizlarni himoya qilish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyatda ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik bo'yicha murosasizlikni ta'minlash borasida qator qonun hujjatlari qabul qilindi. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish doirasida O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash, barcha xotin-qizlarning huquqlarini kengaytirishga qaratilgan 9 ta maqsad ishlab chiqilgan va izchil amalga oshirilmoqda.

O'quv kursida Ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi, uning hududiy bo'limlari va namunali tumanlararo markazlari direktorlari hamda huquqshunoslari

– jami 50 nafar tinglovchi ishtirok etdi. Mashg'ulotlar O'zbekiston Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan Inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturi doirasida o'tkazildi. Bunda asosiy e'tibor, BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo'mitalari tavsiyalarini hisobga olgan holda, ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari rahbar va xodimlarining ayollar huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini xalqaro amaliyot hamda milliy tajriba negizida qo'llashga oid amaliy ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga qaratildi. Oflayn va onlayn tarzidagi mashg'ulotlarda:

- inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarning mazmun-mohiyati va mamlakat milliy huquqiy tizimi uchun ahamiyati;
- ayollar huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari: xalqaro va milliy mexanizmlar;
- xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikni bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan choralar, zo'ravonlik sodir etgan shaxslar bilan o'tkazilayotgan profilaktika ishlari;
- tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarga yordam berish va jinoyatchilarni javobgarlikka tortish bo'yicha chora-tadbirlar;
- gender tenglikni ta'minlash: xalqaro va milliy tajriba yuzasidan tinglovchilarning bilimlari oshirildi.

XULOSA

Raqamlashtirish davri ayollar uchun yangi imkoniyatlar yaratishda katta ahamiyatga ega bo'lsa-da, shu bilan birga, ularning huquqlari va xavfsizligini ta'minlashda yangi tahdidlarga ham olib kelmoqda. Onlayn tahdidlar, kiberhujumlar, shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi va internetda gender asosida diskriminatsiya kabi xavflar ayollarni raqamli muhitda erkin va xavfsiz faoliyat yuritishlariga to'sqinlik qilmoqda. Raqamli tenglikni ta'minlash, ayollarni raqamli iqtisodiyotga integratsiya qilish, ularning onlayn xavfsizligini ta'minlash va raqamli huquqlarini himoya qilish — bularning barchasi bugungi kunda dolzarb masalalarga aylangan. Ayollarni raqamli olamda teng huquqli ishtirokchilar sifatida ko'rish, ularga raqamli texnologiyalarni o'rgatish va iqtisodiy mustaqillikka erishish imkoniyatlarini yaratish, davlatlar va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishni talab qiladi. Shu bilan birga, onlayn tahdidlardan himoya qilish va ayollarni raqamli xavfsizlikka o'rgatish uchun maxsus qonunlar va dasturlar ishlab chiqish zarur. Ayollarni raqamli olamda muvaffaqiyatli va xavfsiz faoliyat yuritishlari uchun nafaqat texnologik imkoniyatlar, balki ijtimoiy, huquqiy va madaniy o'zgarishlar ham zarur. Shu nuqtada, davlatlar, xususiy sektorlar va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Ayollarni raqamli huquqlarini himoya qilish, ularni iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga rag'batlantirish, jamiyatning har bir a'zosi uchun yanada adolatli va barqaror kelajakni ta'minlashga yordam beradi. Faqat shu yo'l bilan ayollar raqamli jamiyatda to'laqonli va xavfsiz hayot kechirishlari, o'z huquqlarini to'liq amalga oshirishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. <https://lex.uz/ru/docs/-4230944>
2. A. Saidov. “Ayollar huquqlari bo'yicha bo'yicha xalqaro va milliy qonun hujjatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari”, T.:1999 y. b-82
3. Tansiqboyeva G. Ayollarning diskriminatsiya qilinishini bartaraf etish – ularning amaldagi tengligining zaruriy sharti//Ayol huquqi va erkinliklari. – T.: Adolat, 2002.
4. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-10550>
5. Uza.uz <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-khal-07-03-2020>
6. Xs.uz <http://xs.uz/uz/post>
7. <https://m.aniiq.uz/uz/yangiliklar> <https://uzmarkaz.uz/news/ozbekistonda-ayollar-huquqlarini-himoya-qilishning-huquqiy-asoslari>
8. <https://kun.uz/news/2024/05/10/bmt-ayollar-tuzilmasi-ozbekistonning-gender-tenglikni-taminlash-say-harakatlariga-yuqori-baho-berdi>